

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida bank faoliyatida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish istiqbollari

Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Nabiye Sherzod Kazimjonovich, Sayitmurodova Dilbar Aslid-dinovna

Перспективы внедрения финансовых инноваций в банковскую деятельность в условиях инновационной экономики

Ходжимамедов Акмал Ашурович, Набиев Шерзод Казимжонович, Сайитмуродова Дилбар Аслиддиновна

Prospects for implementing financial innovations in banking activities in the context of innovative economy

Khodjimamedov Akmal Ashurovich, Nabiye Sherzod Kazimjonovich, Sayitmurodova Dilbar Aslid-dinovna

Received: April 24, 2025 Revised: April 28, 2025 ■ Accepted: April 29, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Mazkur ishning dolzarbligi shundaki, innovatsion texnologiyalar va raqamli moliyaviy xizmatlar rivojlanishini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning bank tizimiga ta'siri, imkoniyatlari va mavjud muammolarni aniqlash O'zbekiston bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston bank tizimida innovatsiyalar va raqamli moliyaviy xizmatlar rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.
- **Kalit so'zlar:** Bank, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, moliyaviy innovatsiyalar, samaradorlik, bank kartalari.
- **Аннотация.** Актуальность данной работы заключается в том, что научно обоснованный анализ развития инновационных технологий и цифровых финансовых услуг, их влияния на банковскую систему, выявление возможностей и существующих проблем имеет большое значение в повышении конкурентоспособности банковского сектора Узбекистана. Целью исследования является анализ тенденций развития инноваций и цифровых финансовых услуг в банковской системе Узбекистана и разработка научно-практических предложений по их дальнейшему совершенствованию.
- **Ключевые слова:** Банковское дело, инновации, цифровые технологии, финансовые инновации, эффективность, банковские карты.
- **Abstract.** The relevance of this work is that a scientific analysis of the development of innovative technologies and

digital financial services, their impact on the banking system, identification of opportunities and existing problems is of great importance in increasing the competitiveness of the banking sector of Uzbekistan. The purpose of the study is to analyze the trends in the development of innovations and digital financial services in the banking system of Uzbekistan and develop scientific and practical proposals for their further improvement.

■ **Key words:** Banking, innovation, digital technologies, financial innovation, efficiency, bank cards.

KIRISH

O'tgan asrning 70 yillaridan boshlab, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy inqilobning natijasi bo'lgan postindustrial jamiyat qurish avj oldi. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy inqilob o'ziga xos texnologiyalar, muhandislik va ishlab chiqarish tizimlari, mehnat va boshqaruv munosabatlarini o'z ichiga oladi. Postindustrial jamiyatda axborot va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, kompyuter tizimlari asosini tashkil etadi va iqtisodiyotni tashkil etishning yangi innovatsion shaklini qurishda o'z-o'zidan amalga oshirishga olib kelishi kerak. Xorijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, innovatsion iqtisodiyotni barpo etish – mamlakatni XXI asrning birinchi yarmida rivojlantirishning strategik yo'li hisoblanadi [1].

Fikrimizcha, innovatsion iqtisodiyot – bu yangi bilim va ko'nikmalar, innovatsiya, yangi g'oyalar, tizimlar va axborot texnologiyalarni ijobiy idrok etish va ularni inson hayotining turli sohalarida amalda qo'llash imkoniga asoslangan iqtisodiyotdir. Innovatsion iqtisodiyotda ilmiy bilim va ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ilmiy-texnik bilimlar ta'sirida moddiy ishlab chiqarishning an'anaviy shakllari innovatsion iqtisodiyot sharoitida yangi bosqichga chiqadi va texnologik bazasini o'zgartiradi, chunki yangi bilim va innovatsiyalarsiz ishlab chiqarishni sifat jihatdan yangi bosqichga va jahon bozoriga chiqishi mumkin bo'lmaydi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish bozorda raqobatni kuchaytirish, shuningdek, sanoatning o'sish sur'atlarini, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, biz har qanday soha yoki faoliyatda innovatsiyalarni hisobga olishimiz kerak. Ushbu tadqiqotning predmeti moliyaviy innovatsiyalarning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan bank innovatsiyasi hisoblanadi. Innovatsion sohada "moliyaviy" atamasi muomaladagi mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish uchun tovar-pul munosabatlaridir. Shunday ekan, moliyaviy innovatsiyalar – ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish qurolidir. Moliyaviy innovatsiyalarning boshqa innovatsiyalardan asosiy farqi shundaki, moliyaviy innovatsiyalar innovatsion fondlarni yaratish uchun resurs manbai sifatida asosiy vositalardan foydalanadi. Moliyaviy innovatsiyalar tovar-pul munosabatlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirishning resursi va usulidir. Ular jamiyatdagi zamonaviy ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining tarkibiy qismidan

iborat bo'ladi. Moliyaviy muhitning o'zi mustaqil, o'z-o'zidan rivojlanadigan mahsulotlar bo'lgan moliyaviy vositalar va texnologiyalarni yaratadi va ularning sifati va miqdori makro va mikroagentlarning o'sib borayotgan iqtisodiy ehtiyojlariga, shuningdek, mikro muhit sharoitlariga mos ravishda doimiy ravishda o'sib boradi. Shuning uchun moliyaviy innovatsiyalar bilan bog'liq moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqarish sektori paydo bo'ldi. Moliyaviy innovatsiyalar ham mijozlar uchun ham vosita, ham mikro va makroiqtisodiyotda biznes yuritish usulidir. Ularni tovar va investitsiya aktivi sifatida ko'rish mumkin [2]. Moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy resurslardan, risklardan, rentabellikdan, likvidlikdan va bunday sharoitlarda yetarlicha baholanmagan axborotdan foydalanishdan foyda olishni maqsad qilgan moliyaviy mahsulotdir [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank innovatsiyalari bank faoliyatidada qo'llaniladigan moliyaviy innovatsiyalar natijasi bo'lib, u butunlay yangi va takomillashtirilgan bank xizmati, mahsulot, jarayon yoki yangi/an'anaviy bozor segmentida texnologik operatsiyani ifodalaydi.

Birinchidan, innovatsion bank faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda texnologik bank innovatsiyalarini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar boshqa tarmoqlarda (elektronika, hisoblash texnikasi va aloqa) yaratilgan. Shunday ekan, ularni sohaga boshqa sohadan import qilingan deb hisoblasak ham bo'ladi [4].

Ikkinchidan, bank sektorida yetakchi banklar va boshqa banklarga bo'linish nisbiydir, chunki axborot texnologiyalari import qilinadi. Yetakchi banklar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirishda faol darajada qatnashadilar va bank xizmatlari bozorida o'z mavqe'larini oshirib boradilar [5].

Uchinchidan, banklar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalar tuzilma va infratuzilmadagi o'zgarishlar, shuningdek, bank xizmatlari bozori bilan bevosita bog'liq bo'lgan yangi bank mahsulotlari bilan bog'liq [6].

Va nihoyat to'rtinchidan esa, mintaqa yoki shaharda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish xarajatlari muhim rol o'ynaydi. Bank sektoridagi innovatsion yetakchilardan keyin banklar pulni faqat texnologiyalar va litsenziyalarni sotib olishga sarflaydilar.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xususan, bank sektoridagi innovatsion ishlanmalar globallashuvga ilgari tashkil etilgan moliyaviy konglomeratlardan tashqariga chiqish va chakana bozorlarga chiqish imkonini berdi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni o'tkazishda quyidagi usullardan foydalanildi: nazariy usul (tizimli, reproduktiv, tarixiy va institutsional-evolyutsion), empirik usul (xalqaro Net-Ready indeksini hisoblash uchun sotsiologik so'rov), matematik statistika, natijalarning grafik va jadvalli taqdimoti.

Ushbu tadqiqotda eksperimental baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, Jahon bankining ilmiy hisobotlari, xalqaro reyting agentliklarining hisobotlari va xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zlarini global lider sifatida ko'rsatgan banklar butun dunyo bo'ylab onlayn xizmatlar ko'rsatishni boshladilar va qimmat chakana tarmoqlarni rivojlantirishni to'xtatdilar [8]. Bugungi kunda yirik banklarning telekommunikatsiya kompaniyalari bilan birlashishi hisobiga elektron xizmatlar va aloqa bozorini qayta taqsimlash yakunlanmoqda [9]. Onlayn banking va Internet orqali elektron to'lovlarning jadal rivojlanishi aholi uchun tranzaksiya operatsiyalarini (kreditlash/bank depozitlari) an'anaviy tarzda amalga oshiruvchi nobank moliya institutlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Bank faoliyatidagi innovatsiyalar yanada foydali mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan. Iqtisodchi olim Piter Rouz innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning quyidagi sabablarini aniqlaydi:

1. Raqobatning kuchayishi va moliya bozorining tartibga solinmasligi (buning natijasida menejerlar bank xizmatlarini rivojlantirish tashabbusi bilan chiqishlari mumkin), jahon bank sektori va milliy sektor o'rtasida, shuningdek, bank va nobank moliya institutlari o'rtasida keskin raqobat.

2. Bank faoliyatini tartibga solishning xalqaro standartlarini qat'iyalashtirish va bank xizmatlari rentabelligining pasayishini qoplash manbalarini topish. Kapital bazasini ko'paytirish va balansdagi aktivlarni kamaytirish uchun qayta taqsimlash tendentsiyasi (kreditlashni qisqartirish orqali) [10]. Shu munosabat bilan banklar bank kapitaliga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiq pullik xizmat ko'rsatishning risksiz yangi shakllarini ishlab chiqishlari kerak. Ular foydani oshiradi, xavfli balans aktivlari va pul oqimlarining etishmasligiga qarshi turadi. Shunday qilib, anderrayting,

moliyaviy rejalashtirish, sug'urta va investitsiya fondlarini sotish muhim rol o'ynaydi.

3. Mablag'larning tez aylanmasi va joriy bank xizmatlari hisobiga daromadlarning o'sishi bilan tavsiflanadigan diversifikatsiyadan olingan foyda quyidagilardan iborat:

- moliyaviy faoliyatni diversifikatsiya qilish orqali risklar darajasini pasaytirish;

- pul oqimiga innovatsion yondashuvlar va yangi xizmatlarni joriy etishdan kutilayotgan foyda;

- naqd pul oqimi yoki faol bank xizmatlaridan olingan foyda tufayli kelib chiqadigan standart o'zgarishlar;

- innovatsion va joriy bank xizmatlari sohasidagi pul oqimlarining nisbati;

- ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun moliyaviy resurslarning prognoz qilinadigan va kengaytiriladigan hajmi.

4. Bankning o'z kapitalining mijozga taklif qilinadigan xizmatlarning mumkin bo'lgan soniga bog'liqligi.

5. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilik – bu bank hajmining ko'payishi hisobiga bank xizmatlarining kengayishi bo'lib, bu doimo tuzilmani tashkiliy boshqarishning zaiflashishiga olib keladi. Bu innovatsiyalar va o'sib borayotgan bank ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni yomonlashtiradi va xarajatlarni nazorat qilish samaradorligini pasaytiradi. Bank hajmini oshirishdan olingan daromadlar, sanoat miqyosidagi xarajatlarni tejash (tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanish) va bank xizmatlarini muvaffaqiyatli kengaytirishdan olingan iqtisodiy daromadlar yuqori narxlar bilan qoplanishi mumkin [3]. Bu bank boshqaruvi tomonidan nazoratning zaiflashishiga va yangi bank xizmatlarini ishlab chiqish xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin.


Zamon talabi bo'lgan innovatsiyalarning hayot aylanishi, banklar o'rtasidagi raqobat, moliya bozorining o'sib borayotgan globallashuvi, bank tizimining oligopollashuvi, qonunchilikni tartibga solish, joriy etilgan cheklovlar va o'zgarishlar (Bazel II va Bazel III bo'yicha kapitalning yetarliligi), axborot texnologiyalarining rivojlanishi, shuningdek, bank va sug'urta tizimlarining integratsiyasi bank innovatsiyalarining asosiy omillari hisoblanadi. Iste'molchilar ehtiyojini qondirish va bank xizmatlari bozorida yetakchilik uchun raqobatning kuchayishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan innovatsiyalar innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlarining keyingi rivojlanishi va joriy etilishini belgilab beradi [10]. Innovatsiyalar bugungi raqobat sharoitida hayotiy zaruratdir.

Ikkita bir-biriga o'zaro bog'liq jarayon – globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy bank biznesining ko'rinishi va prototipini tubdan o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Bank sektoriga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishiga qaramay, bu ikki tendentsiya zamonaviy global bank tizimini kelajagini belgilab beradi. Bir tomondan, ular innovatsion texnologik

imkoniyatlarni yuzaga keltiradi, biroq boshqa tomondan esa, ular an'anaviy va yangi bank tuzilmalarining ta'sirini kuchaytiradi va strategik rivojlanishga ta'sir qiluvchi g'ayrioddiy va tezkor qarorlarni talab qiladi [11].

Yangi va o'zgartirilgan bank mahsulotlari, davom etayotgan tajriba islohotlari, joriy etilgan texnologiyalar va O'zbekistondagi tijorat banklarining istiqbolli strategik

rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, aksariyat bank innovatsiyalari bugungi kunda asosan jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan. Jismoniy shaxslar uchun innovatsiyalar va mahsulotlarni ishlab chiqish tobora ommalashib boryotgan bir davrda, biznes uchun mahsulotlar va banklarda biznes jarayonlarini optimallashtirish ular bilan mutanosib ravishda rivojlanadi.



1-rasm. O'zbekistonda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni, 2024 yil 1 yanvar holatiga [1]

ARG'ning Bank Innovation Market Research ma'lumotlariga ko'ra, masofaviy bank xizmatlari, onlayn-banking, mobil ilovalar, veb-saytlar va bozorlar 2023-yilda boshqa innovatsion bank mahsulotlariga qaraganda tez-tez yangilangan (37,3%). Raqamli xizmatlarning jadal rivojlanishi

va banklarga tashriflar sonining qisqarishini hisobga olsak, bu ajablanarli emas. Ayrim xorijiy olimlar va ekspertlarining fikriga ko'ra, kelgusi o'n yillikning o'rtalarida banklar soni hozirgidan 40-50% kamroq bo'ladi.



2-rasm. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni (turlari bo'yicha), 1 yanvar holatiga, ming [2]

Ayrim innovatsiyalar bir nechta mahsulotlarga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, bank kartalari eng ommabop bank mahsuloti hisoblanadi. Bularga kontaktiz to'lovlar (Apple Pay, Samsung Pay, Android Pay va boshqalar), to'lov funksiyasiga ega bilaguzuklar va uzuklar, shuningdek, bank kartalarining noodatiy turlari kiradi. Onlayn kredit

kabi xizmatlar ham bugungi kunda innovatsion bank mahsulotlaridan hisoblanadi. Bularga mobil ilova orqali mijozlarga kredit berish, bankomatlar orqali to'lovlarni qabul qilish, ipoteka kreditlarini onlayn ro'yxatdan o'tkazish va tasdiqlash va boshqalar kiradi.

Количество установленных платёжных терминалов, банкоматов и инфокиосков в Узбекистане. Сентябрь | тыс. ед.



3-rasm. O'rnatilgan to'lov terminallari soni, dona, 2024 yil 1 sentyabr holatiga[3]

Tadbirkorlik sub'ektlarining to'lov terminallari bilan ta'minlanganligi, ulardan samarali foydalanish ko'nikmalarining mavjudligi muntazam o'sib borilmoqda. Natijada hududlardagi chakana savdo va pullik xizmatlar ko'rsatish shaxobchalari hamda bank infratuzilmalariga o'rnatilgan terminallar soni 2024 yil 1 sentyabr holatiga 424,0 ming donaga yoki 2018 yil 1 sentyabr holatiga nisbatan 43 foizga oshganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, keying yillarda kredit kartalarining ommabopligi boshqa bank mahsulotlariga nisbatan oshishi kutilmoqda. Bunga asosiy sabab qilib esa, jamiyat qarzga olingan mablag'larga muhtojligi va ularni kredit karta yordamida olish osonroq va qulayroqligida deb e'tirof etilmoqda. Kredit kartalar – bu mijozlarga bank aktivlaridan foydalangan holda tovarlar va xizmatlar uchun to'lash imkonini beruvchi bank kartalari. An'anaga ko'ra, kredit kartalarida mijozning o'z mablag'lari mavjud bo'lmaydi. Bank muassasalari tomonidan chiqarilgan to'lov va kredit kartalarining tuzilishini aytib o'tish joiz. McKency statistik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, jahonda foiz nisbatida overdraftli (16,3%) emas, balki overdraftsiz (87,0%) to'lov kartalari ustunlik qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy innovatsiyalar quyidagi xususiyatlarga ega: moliyaviy bozorda majburiy amaliy joriy etish, hayot tsiklining mavjudligi, ilmiy natijalarni moliyaviy sohada

ham, tegishli boshqa sohalarida ham iqtisodiy faoliyatga jalb qilish, bozorning joriy etish va keyingi rivojlanish jarayoniga ta'siri, shuningdek patent qonunining qo'llanilmasligi, bu ularning rivojlanishida ishtirok etmagan xo'jalik sub'ektlari tomonidan moliyaviy innovatsiyalarga taqlid qilishga olib keladi. Bank innovatsiyasi esa, bank sektoridagi moliyaviy innovatsiyalarning alohida bir tarkibiy qismidir.

Buning asosiy sababi shundaki, tijorat bankining innovatsion rivojlanishi zamonaviy bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni belgilovchi omilga aylandi. Moliyaviy va bank innovatsiyalari iqtisodiyotning bank sektorining innovatsion rivojlanishi sharoitida o'zaro bog'liqdir va bu fakt innovatsion muhitida bank innovatsiyalarining rolini belgilaydi. Innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlarini rivojlantirish va ularni xalqaro va milliy moliya bozorlarida joriy etishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: iqtisodiy innovatsion rivojlanishning yangi paradigmasini shakllantirish, bilimga asoslangan iqtisodiyotni joriy etish, zamonaviy iqtisodiy innovatsiyalarning bir qismi sifatida bank innovatsiyalari, axborot texnologiyalari muhitida bank biznesi, Internet orqali bank hisoblarini boshqarish, bank xizmatlaridan iqtisodiy integratsiyaning eng mashhur vositalaridan biri sifatida ko'rsatib o'tish lozim.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xodjimamedov Akmal Ashurovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b. / Ходжимамедов

Акмал Ашурович – доктор философии по экономике, и.о. доцента Самаркандского института экономики и сервиса / Khodjimamedov Akmal Ashurovich – PhD in Economics, Acting Associate Professor at the Samarkand Institute of Economics and Service

► khodjimamedov@rambler.ru

■ <https://orcid.org/0000-0002-0876-6671>

2. Nabiyev Sherzod Kazimjonovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali katta o'qituvchisi / Набиев Шерзод Казимжонович – старший преподаватель Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета / Nabiev Sherzod Kazimjonovich – senior lecturer of the Samarkand branch of the Tashkent State University of Economics

► nabiev.sherzod@gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0002-2660-6700>

3. Sayitmurodova Dilbar Asliddinovna – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi / Сайитмуродова Дилбар Аслиддиновна – студентка Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета / Sayitmurodova Dilbar Asliddinovna – student of the Samarkand branch of the Tashkent State University of Economics

► sayitmurodovadilbar@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-1708-4736>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Clark, J.B. (1988). The Limits of Competition. In J.B. Clark & F.H.Giddings (Eds.), The Modern Distributive Process. Boston, Massachusetts: Ginn & Co.
- [2]. Kazi, M., Shahbaze, S.M., & Hammoudehfg, S. (2018). Financial Markets, Innovations and Cleaner Energy Production in OECD CountriesMdAl. Energy Economics, 72, 236-254. <https://dx.doi.org/10.1016/j.eneco.2018.04.011>.

eneco.2018.04.011.

- [3]. Wang, J. (2018). From Aperture Satellite to "Internet Finance": Institutionalization of ICTs in China's Financial Sector since 1991. Telecommunications Policy, 42 (7), 566-574. <https://dx.doi.org/10.1016/j.telpol.2018.04.00>.
- [4]. Economidou, C., Grilli, L., Henrekson, M., & Sanders, M. (2018). Financial and Institutional Reforms for an Entrepreneurial Society. Small Business Economics, 51(2), 279-291. <https://dx.doi.org/10.1007/s11187-018-0001-010>
- [5]. Huang, L., & Zhao, X. (2018). Impact of Financial Development on Trade-Embodied Carbon Dioxide Emissions: Evidence from 30 Provinces in China. Journal of Cleaner Production, 198, 721-736. <https://dx.doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.07.021>
- [6]. Tamer, K., & Keren, A. (2018). Can we Have a General Theory of Financial Innovation Processes? A Conceptual Review. Financial Innovation, 4 (1), 1-27. <https://dx.doi.org/10.1186/s40854-018-0088-y>
- [7]. Giudici, P. (2018). Financial Data. Science Statistics & Probability Letters, 136, 160-164. <https://dx.doi.org/10.1016/j.spl.2018.02.024>
- [8]. Marszk, A., & Lechman, E. (2018). Tracing Financial Innovation Diffusion and Substitution Trajectories. Recent Evidence on Exchange-Traded Funds in Japan and South Korea. Technological Forecasting and Social Change, 133, 51-71. <https://dx.doi.org/10.1016/j.techfore.2018.03.003>
- [9]. Hoa, C.Y., Hao, S.H., & Wub S.J. (2018). Financial Deepening and Innovation: The role of Political Institutions. World Development, 109, 1-13. <https://dx.doi.org/10.1016/j.worlddev.2018.02.0226>
- [10]. Pradhana, R.P., Arvinb, M.B., Nairc, M., Bennettd, S.E., Bahmanie, S., & Hal, J.H. (2018). Endogenous Dynamics between Innovation, Financial Markets, Venture Capital and Economic Growth: Evidence from Europe. Journal of Multinational Financial Management, 45, 15-34. <https://dx.doi.org/10.1016/j.mulfin.2018.01.002>
- [11]. Sorescu, A., Sorescu, S.M., Armstrong, W.J., & Devoldere, B. (2018). Two Centuries of Innovations and Stock Market Bubbles. Marketing Science, 37 (4), 507-529. <https://dx.doi.org/10.1287/mksc.2018.1095>
- [12]. Xodjimamedov Akmal. 2022. "IMPROVING BANKING INNOVATIONS WITH DIGITALIZATION OF THE BANKING SYSTEM". Economics and Innovative Technologies 10 (3):1-8. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a1.